# ABDULHAMID CHO‘LPONNING “QOR QO‘YNIDA LOLA” HIKOYASIDA BADIIY, RAMZIY VA IJTIMOIY TAHLILLAR

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti:

O'zbek tili yo'nalishi 3 – bosqich

23.90 A guruh talabasi

**Abdulhafizova Shabnamxon Fayzullo qizi**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi badiiy, ramziy hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari, inson ruhiyati tasviri va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Hikoyadagi “qor” va “lola” obrazlarining ramziy mazmuni ochib berilib, ular orqali muallif ilgari surgan g‘oyalar izohlanadi. Shuningdek, asarning tekstologik xususiyatlari va badiiy uslubi ham tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Cho‘lpon, jadidchilik, ramziylik, psixologizm, lirik nasr, badiiy obraz, ijtimoiy muammo, o‘zbek adabiyoti, simvol, tahlil.

**Kirish**. XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti jadidchilik harakati ta’sirida tub burilish davrini boshdan kechirdi. Bu davr adabiyoti inson ongini uyg‘otish, jamiyatni isloh qilish va milliy tafakkurni rivojlantirish g‘oyalari bilan ajralib turadi. Ana shu jarayonning eng yirik namoyandalaridan biri — Abdulhamid Cho‘lpon bo‘lib, u o‘z asarlarida inson ruhiyati, erkinlik va ijtimoiy muammolarni chuqur yoritgan. Adibning boy ijodining qo'lyozma manbalari ayrim sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmadi. 1989-yilga kelib adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul Cho'lponning turli davrlarda yozilgan eng sara she'rlaridan kichik to'plam tuzgan va "Bahorni sog'indim" nomi bilan chop ettirganini ham ko'rishimiz mumkin. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi uning nasriy ijodidagi muhim asarlardan biri bo‘lib, unda ramziylik, psixologizm va ijtimoiy tanqid uyg‘unlashgan. Tadqiqotchilar bu asarni o‘zbek lirik nasrining dastlabki yetuk

namunalaridan biri sifatida baholaydilar. Asarning yaratilish davri va jadidchilik konteksti: Cho‘lpon ijodi jadidchilik mafkurasi bilan chambarchas bog‘liq. Jadidlar jamiyatni yangilash, ayniqsa, ayollar taqdiri va ta’lim masalalarini ko‘tarish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishishni maqsad qilgan. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida aynan shu davr muammolari — jaholat, tengsizlik va inson erkinligi masalalari badiiy ifodalangan . Shu jihatdan asar nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ham ega.

To‘rt qismdan tashkil topgan bu hikoya yagona roviy tomonidan hikoya qilinadi. Ya‘ni muallif qahramonlar ruhiyatini ochishda dialog va monologlarga keng o‘rin bermaydi, aksincha, yozuvchi bayoni yetakchilik qilganiga asarni o'qish paytida guvoh bo'lamiz. Bu unsur hikoya qisqaligiga mazmun jihatdan putur yetkazmagan holda ta’minlagan. Shu bilan birga har bir qismda boshqa-boshqa personajlarning ichki kechinmalari o‘z o‘rnida namoyon bo’ladi. Syujet va kompozitsiya jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, hikoya voqealari sodda syujet asosida qurilgan bo‘lsa-da, uning ichki mazmuni murakkab psixologik qatlamlarga ega. Asarda tashqi voqealardan ko‘ra qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari ustuvor. Hikoya 4 qismdan iborat bo'lib, birinchi qism yosh qizlarning beg’ubor o’yini bilan boshlanib, hikoyaning so‘ngida ro‘y beradigan tragik voqea shum xabaridan kelgan darak bilan yakunlanadi. Ikkinchi qismi Sharofatxonning otasi Samandar aka va uning ayoli Qumribushlarning ichki kechinmalarini va Sharofatxon taqdiri uchun mudhish evrilishni o‘z ichiga qamrab oladi. Uchinchi qismda esa, to’y harakatlari, bo’layotgan voqealarga atrofdagilar munosabati izohlangan. To’rtinchi qismda xulosa. Ushbu to'rt qism syujetni personajlar hikoyasi bilan emas, ijodkorning so‘zlari orqali yaxlit qoliplanganini ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilar ta’kidlaydiki, Cho‘lpon hikoyada dramatik voqealardan ko‘ra ruhiy konfliktni markazga qo‘yadi. Bu esa asarni psixologik realizm ruhida yozilganligini ko‘rsatadi. Ramziylik va badiiy obrazlar tizimi: Asarning eng muhim jihatlaridan biri — ramziy obrazlarning kuchli qo‘llanilishidir. Qor obrazi - sovuqlik, zulm, iztirob va umidsizlik timsoli. Jamiyatdagi ruhiy va ijtimoiy “muzlash” holatini ifodalaydi. Lola obrazi - go‘zallik, muhabbat, hayot va umid ramzi. Eng og‘ir sharoitda ham yashashga intilishni bildiradi. Ilmiy manbalarda

bu ikki obraz o‘zaro kontrast orqali inson ruhiyatining murakkabligini ochib berishi ta’kidlanadi. Ya’ni, qor va lola — hayotdagi qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasidir. “Qor qo‘ynida lola” hikoyasining sarlavhasi, asar so‘ngida Mamat qorovul tilidan achinish-u alam kabi yurakni ezib tashlaydigan satrlar orqali bayon eetiladi Vaholanki, qorda qolgan lolalar kam emas edi. Qahramonlar va psixologik tahlilni keltiradigan bo'lsak, Cho‘lpon hikoyada qahramonlarni tasvirlashda psixologik chuqurlikka erishgan. Qahramonlarning ichki dunyosi, kechinmalari va ruhiy iztiroblari nozik tasvirlanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra Qahramonlar individual emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli sifatida tasvirlanadi. Ularning ruhiy holati jamiyatdagi muammolar bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, ayol obrazlari orqali jamiyatdagi tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlik ochib beriladi. Bu esa jadid adabiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Matn variantlari va tekstologik muammolar. Ilmiy adabiyotlarda hikoyaning bir nechta nashr variantlari mavjudligi qayd etilgan: 1922-yil — “Inqilob” jurnalida chop etilgan variant. 1925-yil — “Go‘zal yozg‘ichlar” to‘plamidagi variant. Ular o‘rtasida imlo, so‘z qo‘llanishi va ayrim uslubiy farqlar mavjud. Tadqiqotchilar bu farqlarni o‘rganish orqali Cho‘lpon asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish zarurligini ta’kidlaydilar.

Badiiy uslub va til xususiyatlari: Cho‘lpon uslubi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: Liriklik va hissiylik, sodda, ammo chuqur ma’noli til, metafora va ramzlarning faol qo'llanishi, psixologik tasvir ustuvorligi. Adabiyotshunoslar uni o‘zbek nasrida lirik-psixologik yo‘nalish asoschilaridan biri deb hisoblaydi. Asarning g‘oyaviy mazmuni shuni ifodalaydiki, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasining asosiy g‘oyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: Inson ruhining sinovlarga bardoshliligi, umid va hayotga intilish g‘oyasi, jamiyatdagi adolatsizlikka tanqidiy munosabat, ayol taqdiriga e’tibor va ijtimoiy tenglik masalasi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, lola obrazi orqali inson qalbidagi so‘nmas umid va go‘zallik g‘oyasi ifodalangan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallagan asarlardan biridir. Unda: Ramziy obrazlar orqali chuqur falsafiy mazmun berilgan, inson ruhiyati nozik tasvirlangan, jadidchilik g‘oyalari

badiiy ifodasini topgan. Asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u insoniyat uchun dolzarb bo‘lgan umid, kurash va erkinlik g‘oyalarini targ‘ib etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Cho‘lpon A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1988.

2. Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. – Toshkent, 1994.

3. “Simvolizm va inson ruhiyati” maqolasi

4. D. Matqurbonova “Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri”. Toshkent. 2021

5. Wikipedia.uz